


Matematika – bu nima?

Salom! Darslikning uchinchi qismida biz matematikaning asosiy tushunchasi:

masalalar bilan tanishamiz. Masalalar turlarini farqlashni va ularga doir ifodalar tuzishni o'rganamiz. Biz mantiqiy masalalar bilan tanishamiz va bunday masalalar kundalik hayotimizda qarorlar qabul qilishimizda qanday yordam berishini tushunib yetamiz.



75. Masalaning tarkibi



2	7	6
		1
4		



Masala bu — shartga va savolga ega bo'lgan matn.

Masala sharti bu — masalani yechish uchun berilgan ma'lumotlar.

Masala savoli bu — topish kerak bo'lgan ko'rsatma.

Masalaning yechimi bu — masalaning sharti bo'yicha savolga javob topish uchun tuzilgan matematik ifoda.



1. Masala tuzing. Savolga javob bering.

Bor edi
24

Keltirildi
12

Bo'ldi
?



2. Masalaning sharti va unga mos kelgan savolni birlashtiring.

Maktabda 33 ta katta va 22 ta kichik xona bor.

O'g'il bolalar qiz bolalardan nechta ko'p?

Sinfda 12 nafar qiz bola va 23 nafar o'g'il bola bor.

Likopchada nechta nok bor?

Likopchada 12 ta olma va olmalardan 7 ta kam nok bor.

Maktabda hammasi bo'lib nechta xona bor?




3. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Sonli zanjirnikim tezroq to'ldiradi?





4. Masalaning yechimini bilib oling.

O'qituvchi darsga 12 ta rangli va 7 ta oq-qora rasm tayyorladi. O'qituvchi darsga nechta rasm tayyorlagan?




12 + 7 = 19 (rasm)
Javob: 19 ta rasm.




5. 4- masala modeliga muvofiq masalani yeching.

O'quvchilar 4 ta masala va 12 ta misol yechdilar. Ular hammasi bo'lib nechta topshiriq bajardilar?



6. Qalamni qog'ozdan uzmagani va chiziqlar ustidan ikki marta yurmagan holda shaklning ustidan chizib chiqing.



7. So'zni taxmin qiling.
Bu nima?

U	26 + 31	T	68 - 31
B	45 + 54	K	96 - 54
N	73 + 14	O	86 - 32

87	54	57	37	99	57	42